

## 2021- yilning yanvar oyida Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'ri, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

### 2021-yilning yanvar oyida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalar, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7 976,7 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1 424,7 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,5 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.



# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmat ko'rsatish sohasi mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil tadbirlarni o'z ichiga oladi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yilning yanvar oyida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>7 976,7</b>	<b>110,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	644,9	113,2
Moliyaviy xizmatlar	2 330,3	125,1
Transport xizmatlari	771,3	95,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	477,8	100,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	321,1	102,3
Savdo xizmatlari	2 160,9	103,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	276,8	104,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	277,7	110,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	174,5	95,5
Ijara xizmatlari	156,7	121,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	49,5	101,5
Shaxsiy xizmatlar	96,4	103,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	248,5	110,0
Boshqa xizmatlar	468,1	114,0

*Dastlabki ma'lumotlar*
















Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2021- yilning yanvar oyida ularning ulushi 29,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar savdo xizmatlari (27,1 %), transport xizmatlar (9,7 %) qayd etildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi

Eng yuqori ulush



Eng past ulush


	Moliyaviy xizmatlar	29,2 %		Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,5 %
	Savdo xizmatlari	27,1 %		Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	3,1 %
	Transport xizmatlari	9,7 %		Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4,0 %
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	8,1 %		Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,2 %
	Boshqa xizmatlar	5,9 %		Ijara xizmatlari	1,9 %
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,5 %		Shaxsiy xizmatlar	1,2 %
	2020-y. yanvar			Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari	0,6 %
	2021-y. yanvar				0,6 %

## Dastlabki ma'lumotlar

Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 0,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush Shaxsiy xizmatlar -1,2 %, Ijara xizmatlar - 1,9 %, Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hissasi 2,2 % ga to'g'ri keldi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (38,7 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,0 % ga), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (9,5 % ga), moliyaviy xizmatlari (6,9 % ga), transport xizmatlari (5,4 % ga), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,5 % ga) shuningdek, shaxsiy xizmatlarda (1,6 % ga), pasayish kuzatildi.

## *Dastlabki ma'lumotlar*

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 27,1 % ni tashkil etdi, bu esa 2 160,9 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.

### Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yilning yanvar oyida)





Joriy davrda chakana ulgurji savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismiga, aniqrog'i 52,2 % iga to'g'ri keladi.

Chakana savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 41,4 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.

## **Moliyaviy xizmatlar** *(2021- yilning yanvar oyida)*

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 2 330,3 mlrd. so'mni - tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar oyida ularning hajmi 1 802,3 mlrd. so'mga teng bo'lgan.



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 29,2 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar oyida ularning ulushi 27,5 % ni tashkil etdi.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 528,0 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**




**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 25,1% ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar oyida ularning o'sish sur'ati 32,0 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish va shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yilning yanvar oyida)



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 91,3 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,4 % oralig'ida qayd etildi.



## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



2021- yilning yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 644,9 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 113,2 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 8,1 % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



## Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 67,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 8,4 %, boshqa aloqa xizmatlari – 17,3 %, shuningdek, noshirlik xizmatlari - 6,9 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021-yilning yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 277,7 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,5 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,1 % ni tashkil etdi.



**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

*(2021- yilning yanvar oyida)*

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 102,3 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 321,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 4,0 % ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 62,0 mlrd. so'mga ko'paydi.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**

*(2021- yilning yanvar oyida)*

## Dastlabki ma'lumotlar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 72,1 % bilan ustunlik qiladi.


2021- yilning yanvar oyida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 27,9 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**  
(2021- yilning yanvar oylarida)

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 174,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




2020 yil yanvar holati bilan taqqoslaganda

Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 2,2 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,5 % ni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yilning yanvar oyida)



Bozor xizmatlari- ning umumiy haj- mida Yunusobod tumani ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 14,6 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.



<p>Shuningdek, eng katta ulush Yashnobod (16,9 %) Chilonzor (12,2%) Mirobod (12,0 %), Shayxontohur(11,7) Mirzo-Ulug'bek (10,3 %) Yakkasaroy (9,3%) tumani qayd etildi.</p>	<p>Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Olmazor (8,3 %), Yashnobod (6,8) Uchtepa (6,4 %), Sirg'ali (5,2 %), Bektemir (2,9 %) va Yangihayot tumanlarida (0,3 %) kuzatildi.</p>
--	---

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da

*(2021- yilning yanvar oyida)*

Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Shayxontohur (120,7 %), Olmazor (117,2 %), Yashnobod (115,4 %), Chilonzor (115,2 %), Uchtepa (111,3 %), Mirzo-Ulug'bek (109,0 %), Yunusobod (108,1 %), Yakkasaroy (101,6%), Bektemir (107,4 %), Mirobod (105,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish Sirg'ali (93,9), Yangihayot (92,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Uchtepa tumani	111,3
Bektemir tumani	107,4
Yunusobod tumani	108,1
Mirzo-Ulug'bek tumani	109,0
Mirobod tumani	105,7
Shayxontohur tumani	120,7
Olmazor tumani	117,2
Serg'ali tumani	93,9
Yakkasaroy tumani	107,7
Yashnobod tumani	115,4
Yangihayot tumani	92,9
Chilonzor tumani	115,2
Toshkent sh.	110,5

Ko'rilayotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida

hududlar bo'yicha Yunusobod tumani ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 186,4 mlrd. so'mga oshdi va 1 161,1 mlrd. so'mga yetdi.

## Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yilning yanvar oyida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<b>Toshkent shahri</b>	<b>7 976,7</b>	<b>110,5</b>	<b>113,6</b>
tumanlar:			
Uchtepa tumani	507,7	111,3	106,9
Bektemir tumani	228,4	107,4	109,7
Yunusobod tumani	1 161,1	108,1	120,8
Mirzo-Ulug'bek tumani	821,2	109,0	100,7
Mirobod tumani	960,6	105,7	107,8
Shayxontohur tumani	934,9	120,7	105,4
Olmazor tumani	664,5	117,2	120,7
Serg'ali tumani	416,1	93,9	100,4
Yakkasaroy tumani	743,1	107,7	97,0
Yashnobod tumani	542,3	115,4	134,5
Yangihayot tumani	23,9	92,9	-
Chilonzor tumani	972,9	115,2	134,8

<sup>\*)</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda,

## *Dastlabki ma'lumotlar*

respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2021- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 30 39,4 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0% ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi – 3 639,4 ming so'm

O'sish sur'ati % da ,  
2020-yil yanvar oylariga nisbatan, - 107,0 %

Hajmning o'sishi, 2020- yil yanvar oylariga nisbatan, - 460,7 ming so'mga



Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.




Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

### 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat

Dastlabki ma'lumotlar

## ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 74,2 %, sanoat - 16,5 %, qurilish - 8,3 % ga yetdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi 1,0 % ga to'g'ri keldi. sanoat

## 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (37,1 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,3 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,4 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 5,4 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2020- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 61 304 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 34,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,8 %, tashish va saqlash - 5,5 %, axborot va aloqa - 5,2 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,5 %, hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 42,9 % ni tashkil etgan.



## 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi 86,0 % ga to'g'ri keladi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, ularning ulushi 84,4 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 71 234 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 9 930 tani tashkil etdi va o'sishi esa 13,4 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 74,2 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxonalar va tashkilotlar sonining ulushi 73,1 % ekvivalentida qayd etildi.

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.



# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

*Dastlabki ma'lumotlar*

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.  
Tel.: 71-203-88-15**